

## O‘ZBEKISTONDA MICE TURIZMI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH VA SERVIS SIFATI MUAMMOLARI

**Xalimova Fayyoza Nafasovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

katta o‘qituvchisi

E-mal: [fayozahalimova@gmail.com](mailto:fayozahalimova@gmail.com)

### **Annotatsiya**

O‘zbekistonda MICE (Meetings, Incentives, Conferences, Exhibitions) turizmini rivojlantirishda malakali kadrlar tayyorlash va servis sifati bilan bog‘liq muammolar tahlil qilinadi. MICE turizmi o‘zining murakkab tashkiliy va xizmat ko‘rsatish talablariga ega bo‘lib, bu soha uchun maxsus bilim va ko‘nikmaga ega mutaxassislar zarurligini taqozo etadi. Maqolada oliy ta‘lim muassasalarida MICE yo‘nalishiga ixtisoslashgan o‘quv dasturlarining yetishmasligi, til ko‘nikmalari va servis madaniyatining pastligi asosiy muammolar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, xizmat sifati va xalqaro mezonlarga mos kadrlar tayyorlash uchun zarur bo‘lgan taklif va tavsiyalar ilgari suriladi. Tadqiqot natijalari MICE turizmi salohiyatini to‘liq amalga oshirish uchun kadrlar siyosatini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** MICE, turizm, kadr, oliy ta‘lim, xalqaro tashkilot, mutaxassis, o‘quv dastur, til ko‘nikmalari, mezonlar.

### **Аннотация**

В статье анализируются проблемы подготовки квалифицированных кадров и качества сервиса в развитии туризма MICE (Meetings, Incentives, Conferences, Exhibitions) в Узбекистане. Туризм MICE предъявляет высокие требования к организации мероприятий и качеству обслуживания, что обуславливает необходимость наличия специалистов с особыми знаниями и навыками. В работе указано на недостаток специализированных образовательных программ в вузах по направлению MICE, низкий уровень языковых навыков и культуры сервиса как основные проблемы. Также предложены рекомендации по подготовке кадров, соответствующих международным стандартам качества обслуживания. Результаты исследования подчеркивают необходимость совершенствования кадровой политики для полного раскрытия потенциала MICE-туризма.

**Ключевые слова:** MICE, туризм, кадры, высшее образование, международные организации, специалист, образовательная программа, языковые навыки, стандарты.

### **Abstract**

The article analyzes the problems associated with training qualified personnel and service quality in the development of MICE (Meetings, Incentives, Conferences, Exhibitions) tourism in Uzbekistan. MICE tourism has complex organizational and service demands, requiring specialists with specific knowledge and skills. The article highlights the shortage of specialized MICE-oriented educational programs in higher education institutions, the low level of language proficiency, and service culture as major issues. Furthermore, suggestions and recommendations are proposed for training

staff that meet international standards. The study results demonstrate the necessity of improving human resource policies to fully realize the potential of MICE tourism.

**Keywords:** MICE, tourism, personnel, higher education, international organization, specialist, educational program, language proficiency, standards.

## KIRISH

O‘zbekiston turizm sohasini strategik rivojlantirish yo‘lida izchil islohotlarni amalga oshirmoqda. Xususan, MICE (Meetings, Incentives, Conferences, Exhibitions) turizmi yo‘nalishida infratuzilmaviy salohiyat kengaytirilib, xalqaro tadbirlar va biznes forumlarni o‘tkazishga mo‘ljallangan zamonaviy majmualar barpo etilmoqda. MICE turizmi nafaqat sayyohlar oqimini ko‘paytirish, balki xizmatlar eksporti hajmini oshirish hamda mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Biroq ushbu yo‘nalishning barqaror va raqobatbardosh rivojlanishiga xizmat ko‘rsatish sifati va malakali kadrlar yetishmasligi kabi omillar jiddiy to‘siq bo‘lmoqda. Xizmat ko‘rsatish madaniyatining xalqaro standartlarga mos darajada shakllantirilmasligi, til bilimlari va servis menejmenti ko‘nikmalarining yetarli emasligi MICE sektorida raqobatbardoshlikni pasaytirishi mumkin.

Mazkur maqolada O‘zbekistonda MICE turizmi uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimidagi mavjud kamchiliklar va xizmat sifati bilan bog‘liq muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, kadrlar salohiyatini oshirish, xizmat ko‘rsatish standartlarini xalqaro mezonlarga moslashtirish va soha infratuzilmasini yanada takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari MICE turizmi sohasini O‘zbekistonda barqaror va raqobatbardosh rivojlantirish uchun strategik yo‘nalishlarni belgilab beradi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

O‘zbekiston olimlari turizm sohasini rivojlantirishda kadrlar tayyorlash tizimining ahamiyati haqida bir qator izlanishlar olib borishgan. Jumladan, To‘xliyev I.S., Hayitboyev R. va Safarov B.S. [1] o‘quv adabiyotlarida O‘zbekistonda turizmning turli yo‘nalishlari, xususan MICE turizmini rivojlantirish masalalarini yoritgan. Mualliflar xizmat ko‘rsatish sifati va uning iqtisodiyotga ta‘siri xususida atroflicha tahlil bergan. Ayniqsa, kadrlar tayyorlashdagi muammolar va zamonaviy talablar asosida bilimlar tizimini shakllantirish zarurligi ta‘kidlangan.

Xayitov A.B. [2] o‘z tadqiqotida xotin-qizlarni ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashish imkoniyatlari, aholining turmush darajasi va bandlik masalalarini tahlil qiladi. MICE turizmida ayollarning ishtiroki va ular uchun kadrlar tayyorlash strategiyalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, servis sifati va mehnat bozoridagi ehtiyojlar ko‘rib chiqilgan.

Nazarullayeva M.G. va Muxlisa B. [3] O‘zbekistonda MICE turizmining rivojlanish istiqbollari tahlil qilgan. Maqolada xizmat ko‘rsatish sifati va malakali kadrlar asosiy omillar sifatida baholangan. Samarali kadrlar tayyorlamasdan turib barqaror rivojlanishga erishish qiyinligi asoslab berilgan.

Mamadaliyev U. [4] turoperatorlik sohasida kadrlar yetishmasligi va bu holatning turizm xizmatlari sifatiga salbiy ta‘siri yuzasidan tahlil o‘tkazgan. Muallif malakali

o'quv dasturlarini ishlab chiqish hamda amaliy ko'nikmalarni kuchaytirish bo'yicha tavsiyalar bergan. Turizm sanoatining raqobatbardoshligini oshirishda yuqori sifatli xizmat va malakali kadrlar tayyorlash muhim omil sifatida ta'kidlanadi.

Thomas A. [5] Bangalor shahrida MICE turizmida xotin-qizlar ishtirokini kuchaytirish strategiyasini tahlil qilgan. Xizmat sifati muammolari va kadrlar tanqisligi tufayli sohada samaradorlik yetarli emasligi ta'kidlanadi.

Adros N.M. va Wee H. [6] Malayziyadagi MICE sanoatida inson kapitali bilan bog'liq muammolarni tahlil qilgan. Mualliflar kadrlar malakasining pastligi hamda xizmat ko'rsatish standartlariga e'tibor yetishmasligi MICE sohasining o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini qayd etgan.

Pindžo R., Kovačević I. va Zečević B. [7] turizm yo'nalishlari uchun kompleks sifat boshqaruvini joriy etish zarurligini asoslagan. Ularning fikricha, xizmat sifati alohida xizmat turlaridan tashqari, umumiy turistik mahsulot sifatiga ham bevosita ta'sir qiladi.

Rajkamal R., Gond H.K. va Kumar P. [8] o'z tadqiqotlarida MICE sanoatida kadrlar malakasi hamda mijozlar bilan munosabatlar boshqaruviga ta'sir etuvchi omillarni o'rgangan. Asosiy xulosa shundan iboratki, yuqori sifatli xizmat va samarali kadrlar siyosati ushbu sanoatning barqaror rivojlanishi uchun zaruriy shart hisoblanadi.

## **METODOLOGIYA**

Mazkur maqola ilmiy-nazariy izlanishlar, tadqiqotchi olimlarning ishlari hamda qiyosiy tahlillarga tayangan holda tayyorlandi. Shu bilan birga, tadqiqot metodologiyasi turizm sohasida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma asoslangan bo'lib, uning natijasi asosida nazariy tahlil amalga oshirildi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

MICE (Meetings, Incentives, Conferences, Exhibitions) turizmi zamonaviy turizm tarmog'ining eng murakkab va yuqori tashkiliy darajadagi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy xususiyati — yirik hajmdagi biznes tadbirlarini professional tarzda tashkil etish, turistik xizmatlarni yagona kompleks ko'rinishda taklif qilish va mavjud infratuzilmani samarali boshqarishdan iborat. Mazkur yo'nalish oddiy sayohat xizmatlaridan tubdan farq qilib, yuqori darajadagi logistika, zamonaviy texnik jihozlar, til ko'nikmalari va xalqaro protokol talablariga rioya qilishni taqozo etadi.

MICE turizmi uchun zarur bo'lgan kadrlarga qo'yiladigan talablar ham o'ziga xosdir. Bunday mutaxassislar nafaqat turizm va mehmondo'stlik, balki menejment, xalqaro munosabatlar, marketing, kommunikatsiya va axborot texnologiyalari yo'nalishlari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi zarur. Shuningdek, ular xorijiy tillarni bilishi, yirik tadbirlarni tashkil qilish tajribasiga ega bo'lishi va mijozlar bilan professional darajada ishlay olishi kerak. Shu sababli MICE turizmi sohasida ishlashga tayyor kadrlar tayyorlashda amaliy mashg'ulotlar, treninglar va xalqaro tajriba almashinuvi alohida ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda MICE turizmini rivojlantirishda malakali kadrlar tayyorlash eng muhim yo‘nalishlardan biri sanaladi. Biroq, hozirgi bosqichda quyidagi muammolar mavjud:

1. Maxsus yo‘nalishlar bo‘yicha ta‘lim dasturlarining yetishmasligi. MICE turizmi o‘ziga xos kompetensiyalarni talab qiladigan soha bo‘lganligi sababli, oliy ta‘lim muassasalarida ushbu yo‘nalishga ixtisoslashgan kurslar va dasturlar yetarli emas. Amaliyotning yetishmasligi, shuningdek, nazariya va amaliyot orasidagi uzilish, talabalarni real hayotda MICE tadbirlarini tashkil etish tajribasidan mahrum qilmoqda. Ko‘plab o‘quv jarayonlari nazariyaga asoslangan bo‘lib, amaliy mashg‘ulotlar kam o‘tkaziladi.

2. Til bilimi va xalqaro kommunikatsiya ko‘nikmalarining pastligi. MICE turizmi xalqaro mijozlar bilan faol muloqotni talab etadi. Biroq, ko‘plab mutaxassislar xorijiy tillarda erkin muloqot qila olmaydi, bu esa xizmat sifati va ishonchlik darajasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

3. Xalqaro hamkorlik va tajriba almashinuvi imkoniyatlarining cheklanganligi. MICE sohasi bo‘yicha yetakchi mamlakatlar bilan akademik va amaliy hamkorliklar sust rivojlangan. Bu esa o‘zbek talabalarining sohadagi zamonaviy tendensiyalarni o‘zlashtirish imkoniyatlarini cheklaydi.

Tadqiqot doirasida “O‘zbekistonda MICE turizmini rivojlantirishning marketing strategiyasi” mavzusida o‘tkazilgan so‘rovnomada 280 nafar respondent ishtirok etdi. Unda MICE turizmini tashkil qiluvchi subyektlarning 70 foizi sifatli kadrlar va yetarli malakaga ega mutaxassislar yetishmayotganini ta’kidladi.

Yuqoridagi muammolar asosida O‘zbekistonda MICE turizmi uchun kadrlar tayyorlashni takomillashtirishga doir quyidagi tavsiyalar shakllantirildi:

- Oliy ta‘lim muassasalarida MICE yo‘nalishiga ixtisoslashgan, amaliyotga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini joriy etish;
- Xorijiy tillar, xalqaro servis madaniyati va kommunikatsion ko‘nikmalarni chuqurlashtirish bo‘yicha maxsus kurslarni yo‘lga qo‘yish;
- MICE sohasida yetakchi davlatlar bilan akademik hamkorlikni kengaytirish va talabalarni xorijda amaliyotga yuborish imkoniyatlarini yaratish;
- Soha bilan bog‘liq davlat siyosatini xususiy sektor bilan uyg‘unlashtirgan holda, servis sifatini nazorat qiluvchi institutlarni rivojlantirish.

1-jadvalda O‘zbekistonda MICE turizmi uchun kadrlar tayyorlash borasida bir qator dolzarb muammolar mavjud. Eng avvalo, maxsus ta‘lim dasturlarining yetishmasligi sababli ushbu soha uchun ixtisoslashgan mutaxassislar soni yetarli emas. Bu muammoni hal etish uchun oliy ta‘lim muassasalarida MICE yo‘nalishiga oid bakalavriat va magistratura dasturlarini joriy qilish, shuningdek, qisqa muddatli modul asosidagi kurslarni tashkil etish zarur.

**1-jadval**
**O‘zbekistonda MICE turizmi uchun kadrlar tayyorlashdagi muammolar va yechimlar<sup>1</sup>**

<b>№</b>	<b>Muammolar</b>	<b>Yechimi</b>
1.	Maxsus yo‘nalishlar bo‘yicha ta‘lim dasturlarining yetishmasligi	- Oliy ta‘lim muassasalarida MICE turizmi bo‘yicha maxsus bakalavriat va magistratura dasturlarini joriy etish; -Turizm, menejment, marketing va logistika sohalarini birlashtirgan interfakultet yo‘nalishlarni tashkil etish; -MICE turizmi yo‘nalishida modul asosidagi qisqa muddatli o‘quv kurslarini ishlab chiqish va taklif etish.
2.	Amaliyotning yetishmovchiligi va nazariya bilan tafovut	Talabalarni yirik MICE tadbirlarida amaliy ishtirokchi sifatida jalb qilish; O‘quv jarayonlariga soha mutaxassislarini taklif etish, seminar va treninglar tashkil etish; Ta‘lim muassasalari va MICE kompaniyalari o‘rtasida strategik hamkorlik memorandumlari tuzish.
3.	Til bilimi va xalqaro kommunikatsiya ko‘nikmalarining pastligi	Chet tillarini o‘qitish jarayonida MICE turizmiga oid kasbiy ingliz tili (ESP — English for Specific Purposes) kurslarini tatbiq etish; Xalqaro til imtihonlariga tayyorlov kurslarini subsidiyalash; O‘quv jarayoniga multimedaviy vositalar va interaktiv kommunikatsiya texnologiyalarini kiritish.
4.	Xalqaro hamkorlik va tajriba almashinuvi imkoniyatlarining cheklanganligi	Erasmus+, DAAD, JICA kabi xalqaro dasturlar bilan hamkorlikda MICE turizmi yo‘nalishida talaba va o‘qituvchilar almashinuvini yo‘lga qo‘yish; Rivojlangan mamlakatlardagi MICE markazlari bilan qo‘shma loyihalar, vebinarlar va onlayn konferensiyalar tashkil etish; O‘zbekistonning yirik MICE obyektlarida xalqaro stajirovka dasturlarini yo‘lga qo‘yish.
5.	Sifatli kadrlar yetishmasligi (so‘rovnoma natijasiga asoslanib)	Mehnat bozorining real ehtiyojlariga asoslangan kompetensiyalar xaritasi ishlab chiqish; MICE sohasida sertifikatlash tizimini joriy qilish va uzluksiz kasbiy rivojlanishni rag‘batlantirish; Turizm vazirligi huzurida MICE Akademiyasi yoki malaka oshirish markazi tashkil etish.

Bundan tashqari, talabalar amaliy tajribaga ega emasligi tufayli real ish muhitida faoliyat yuritish ularning uchun murakkablik tug‘diradi. Ushbu kamchilikni bartaraf etish uchun talabalarni yirik MICE tadbirlariga ishtirokchi sifatida jalb etish, sohaga oid seminar va treninglar tashkil etish hamda MICE kompaniyalari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

Xorijiy til ko‘nikmalarining pastligi ham muhim muammo sifatida ajralib turadi. Bu esa xalqaro mijozlar bilan samarali muloqot o‘rnatishga to‘sqinlik qilmoqda.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

Muammoni hal etish uchun kasbiy ingliz tili (ESP) kurslarini joriy qilish, shuningdek, xalqaro til imtihonlariga tayyorlov dasturlarini yo'lga qo'yish taklif etiladi.

Shuningdek, xalqaro tajriba almashinuvi imkoniyatlarining cheklanganligi ham kadrlar malakasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holatni xalqaro dasturlar bilan hamkorlikda talaba va o'qituvchi almashinuvini yo'lga qo'yish, qo'shma loyihalar va vebinarlar tashkil etish orqali yaxshilash mumkin.

So'nggi muammo sifatli kadrlar tanqisligidir. Tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra, tashkilotchilarning 70 foizi aynan shu muammoni qayd etgan. Bu borada mehnat bozoriga mos kompetensiyalar xaritasini ishlab chiqish, kadrlarni sertifikatlash tizimini joriy etish va MICE Akademiyasini tashkil etish tavsiya etiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda MICE turizmi zamonaviy turizmning murakkab va yuqori tashkiliy ko'nikmalarni talab qiluvchi yo'nalishidir. Ushbu sohaga malakali kadrlar tayyorlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Hozirgi bosqichda quyidagi asosiy muammolar mavjud: maxsus ta'lim dasturlarining yetishmasligi, amaliyot va nazariya o'rtasidagi tafovut, xorijiy til ko'nikmalarining pastligi, xalqaro tajriba almashinuvi imkoniyatlarining cheklanganligi hamda sifatli mutaxassislar tanqisligi.

Mazkur muammolarni hal etish uchun quyidagi chora-tadbirlar taklif etiladi:

- Oliy ta'lim muassasalarida MICE yo'nalishiga ixtisoslashgan maxsus ta'lim dasturlarini joriy qilish;
- Talabalar uchun amaliy mashg'ulotlar va real loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish;
- Kasbiy ingliz tili va xalqaro imtihonlarga tayyorlov kurslarini tashkil etish;
- Xalqaro hamkorlik doirasida talabalar va o'qituvchilar almashinuvi, qo'shma loyihalar va treninglar o'tkazishni yo'lga qo'yish;
- Mehnat bozori ehtiyojlariga mos kompetensiyalar xaritasini ishlab chiqish, sertifikatlash tizimini yaratish va MICE Akademiyasini tashkil etish.

Ushbu choralar O'zbekistonda MICE turizmini samarali va raqobatbardosh tarzda rivojlantirish uchun zarur bo'lgan malakali kadrlar salohiyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvar PF-9-son "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni <https://lex.uz/docs/-6759637>.

2. To'xliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.S. Turizm asoslari. – T.: Fan va texnologiya, 2014. – 230 b. PDF

3. Xayitov A.B. Xotin-qizlarni ish bilan ta'minlashga ko'maklashish imkoniyatlari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2023. – №4. – B. 45-52. PDF

4. Nazarullayeva M.G., Muxlisa B. O'zbekistonda MICE turizmi istiqbollari // University Research Base. – 2024. – №2. – B. 35-41. PDF

5. Mamadaliyev U. O‘zbekistonda turoperatorlik faoliyatining rivojlanish holati // University Research Base. – 2024. – №4. – B. 50-58. PDF
6. Thomas A. Strategic Initiatives for the Empowerment of Women Professionals in the Bangalore MICE Tourism Sector. – ResearchGate, 2022. – URL: <https://www.researchgate.net/publication/363186280> (sahifaga kirish: 28.04.2025).
7. Adros N.M., Wee H. Human capital issues in Malaysian MICE industry from the expert’s perspective // Journal of Tourism, Hospitality and Culinary Arts. – 2019. – T.11, №1. – URL: <https://myjms.mohe.gov.my> (sahifaga kirish: 28.04.2025).
8. Pindžo R., Kovačević I., Zečević B. Integrated Quality Management for MICE Destinations. – ResearchGate, 2016. – URL: <https://www.researchgate.net/publication/310586478> (sahifaga kirish: 28.04.2025).
9. Rajkamal R., Gond H.K., Kumar P. A Study of the MICE Tourism Industry’s Workforce and the Variables Influencing Customer Relationship Management. – ResearchGate, 2023. – URL: <https://www.researchgate.net/publication/372337699> (sahifaga kirish: 28.04.2025).



# Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhah:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, aprel, 4-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**